




2020- yil yanvar-dekabr



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi



2020- yilning yanvar-dekabrdi oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo  
40,0 %

Sanoat  
20,8 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  
18,3 %

Qurilish  
5,0 %

## Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

### Dastlabki ma'lumotlar


- 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **25,5 %** ni tashkil etdi.
- **Kichik tadbirkorlik** subyektlarining soni har 1 000 aholiga **21,0** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar-dekabrida **4 260** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **40,2** foizga kam

### Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	15 511	19 058	3 547
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	7 129	4 260	-2 869
<b>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</b>				
YaHM	%	29,5	25,5	-4,0
Sanoat	%	8,4	6,6	-1,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,3	97,8	-0,5
Investitsiya	%	16,6	33,2	16,6
Qurilish	%	71,9	78,6	6,7
Chakana savdo	%	88,8	82,6	-6,2
Xizmatlar	%	61,4	59,5	-1,9
Yuk tashish	%	9,7	9,3	-0,4
Yuk aylanmasi	%	44,6	45,3	0,7
Yo'lovchi tashish	%	86,1	88,1	2,0
Yo'lovchi aylanmasi	%	81,4	87,9	6,5
Eksport	%	26,2	11,8	-14,4
Import	%	65,1	35,1	-30,0



**2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**




### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>7 129</b>	<b>4 260</b>	<b>-2 869</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Navoiy</b>	<b>1 290</b>	<b>760</b>	<b>-530</b>
<b>Zarafshon</b>	<b>796</b>	<b>383</b>	<b>-413</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Karmana</b>	<b>955</b>	<b>575</b>	<b>-380</b>
<b>Konimex</b>	<b>301</b>	<b>216</b>	<b>-85</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>1 014</b>	<b>576</b>	<b>-438</b>
<b>Navbahor</b>	<b>714</b>	<b>403</b>	<b>-311</b>
<b>Nurota</b>	<b>482</b>	<b>272</b>	<b>-210</b>
<b>Tomdi</b>	<b>118</b>	<b>135</b>	<b>17</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>403</b>	<b>310</b>	<b>-93</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>1 056</b>	<b>630</b>	<b>-426</b>



**2020- yil yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da**



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Navoiy shahri – 17,8 %, Xatirchi tumani – 14,8 %, Karmana tumani - 13,5 %, Qiziltepa tumani –13,5 %, Navbahor tumani – 9,5 %, Zarafshon shahri – 9,0 %, Uchquduq tumani – 7,3 %, Nurota tumani – 6,4 % hissalariga to'g'ri keldi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2019- y. yanvar-dekabr	2020- y. yanvar-dekabr	farq. (+;-)
Jami	7129	4260	-2869
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	720	781	61
Sanoat	1411	884	-527
Qurilish	399	212	-189
Savdo	3248	1703	-1545
Tashish va saqlash	149	101	-48
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	481	202	-279
Axborot va aloqa	83	54	-29
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	50	41	-9
Boshqa faoliyat turlari	588	282	-306



***Ma'lumot uchun:*** 2020– yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:



### **Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
<b>Navoiy sh.</b>	1 290	760	-530
<b>Xatirchi tumani</b>	1 056	630	-426
<b>Qiziltepa tumani</b>	1 014	576	-438
<b>Karmana tumani</b>	955	575	-380
<b>Navbahor tumani</b>	714	403	-311
<b>Zarafshon sh.</b>	796	383	-413
<b>Uchquduq tumani</b>	403	310	-93
<b>Nurota tumani</b>	482	272	-210
<b>Konimex tumani</b>	301	216	-85

2020- yilning yanvar – dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Navoiy viloyati bo'yicha Navoiy shahrida – 760 tani tashkil etdi.






2020- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga nisbatan 21,0 birlikni tashkil etdi.



### Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra\*




2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida, 42,3 birlik, Navoiy shahrida, 27,7 birlik, Karmana tumanida, 26,1 birlik, Uchquduq tumanida, 25,1 birlik, Konimex tumanida, 23,6 birlik, Navbahor tumanida, 20,6 birlik, Nurota tumanida, 20,1 birlikni, Qiziltepa tumanida, 19,7 birlikni tashkil etgan. Zarafshon shahrida va Xatirchi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 15,0 birlikka to'g'ri keldi.


\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



**2020– yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda)\***



**2020- yilning yanvar-dekabrida har 1 000 aholiga to‘g’ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \***



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida 42,3 birlik, Navoiy shahrida 27,7 birlik, Karmana tumanida 26,1 birlik, Uchquduq tumanida 25,1 birlik, Konimex tumanida 23,6 birlik, Navbahor shahrida 20,6 birlik, Nurota tumanida 20,1 birlik, Qiziltepa tumanida esa 19,7 birlikni tashkil etdi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



### Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

- Tomdi tumani - 42,8 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

- Navoiy shahri- 27,7 birlik.

Eng past ko'rsatkich

- Xatirchi tumani- 15,0 birlik.



### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 25,5 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-dekabrida 29,5%).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

42,4%

2018- y.

29,5%

2019- y.

25,5%

2020- y.

**2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>6,6</b>	<b>48,0</b>	<b>59,5</b>	<b>33,2</b>
<i>shaharlar:</i>				
<b>Navoiy</b>	<b>1,7</b>	<b>62,1</b>	<b>37,5</b>	<b>20,9</b>
<b>Zarafshon</b>	<b>90,5</b>	<b>33,8</b>	<b>56,9</b>	<b>51,7</b>
<i>tumanlar:</i>				
<b>Karmana</b>	<b>16,2</b>	<b>49,6</b>	<b>70,0</b>	<b>66,5</b>
<b>Konimex</b>	<b>100,0</b>	<b>27,4</b>	<b>56,2</b>	<b>33,2</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>43,6</b>	<b>68,8</b>	<b>88,2</b>	<b>63,0</b>
<b>Navbahor</b>	<b>58,1</b>	<b>37,6</b>	<b>82,6</b>	<b>90,7</b>
<b>Nurota</b>	<b>99,4</b>	<b>56,1</b>	<b>86,9</b>	<b>88,1</b>
<b>Tomdi</b>	<b>100,0</b>	<b>97,3</b>	<b>62,1</b>	<b>1,6</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>100,0</b>	<b>38,0</b>	<b>65,9</b>	<b>5,4</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>99,1</b>	<b>18,9</b>	<b>76,7</b>	<b>94,2</b>

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**

Konimex, Tomdi va Uchquduq (100,0 %), Nurota (99,4 %), Xatirchi (99,1 %), Zarafshon (90,5 %) va Navbahor (58,1 %)


**Qurilishda-**

Tomdi (97,3 %), Qiziltepa (68,8 %), Zarafshon (62,1 %), Nurota (56,1 %), Karmana (49,6 %) va Uchquduq (38,0 %)


**Xizmatlarda-**

Qiziltepa (88,2 %), Nurota (86,9 %), Navbahor (82,6 %), Xatirchi (76,7 %), Karmana (70,0 %) va Uchquduq (65,9 %)

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 50,1 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 11,8 % ni tashkil etdi.




### **Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining iami eksportdagi ulushi. % da**




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Tomdi va Nurota tumanlarida – 100,0 %, Konimex tumanida – 98,5 %, Zarafshon shahrida – 98,2 %, Uchquduq tumanida – 87,4 %, Xatirchi tumanida – 64,1 %, Navbahor tumanida – 49,8 % ni, eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – 1,1 % ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi 311,1 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 35,1 % ni tashkil etdi.



**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdag'i ulushi, % da**




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Konimex, Nurota va Xatirchi tumalarida – 100,0 %, Tomdi tumanida – 99,9 %, Zarafshon shahrida – 98,1 %, Uchquduq tumanida – 98,0 %, Navbahor tumanida – 60,8 %. Eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – 10,4 % ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subektlari tomonidan 4 298,3 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



**2020- yilning yanvar-dekabrida hududlar  
bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat  
mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (1 129,3 mlrd. so'm), Navoiy shahri (912,8 mlrd. so'm), Xatirchi tumani (564,0 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (495,5 mlrd. so'm) va Navbahor tumani (302,7 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Tomdi tumanida (44,4 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiylajmida kichik biznesning ulushi 6,6 %ni tashkil etdi.





## 2020- yil yanvar- dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Konimex, Tomdi va Uchquduq tumanlrida (100,0%), Nurota tumani (99,4%), Xatirchi tumani (99,1%), Zarafshon shahri (90,5%), Navbahor tumani (58,1%), Qiziltepa tumani (43,6%), Karmana tumani (16,2%) tashkil etdi. Navoiy shahri (1,7%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 6 421,5 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 82,6% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 96,0 %ni tashkil qildi.



**2020- yilning yanvar- dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (1 568,5 mln. so'm), Karmana (1 157,7 mln. so'm), Qiziltepa (882,3 mln. so'm), Xatirchi (869,7 mln. so'm), Zarafshon shahri (663,8 mln. so'm) va Navbahor (399,7 mln. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3 451,4 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 78,6 %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 114,8 %ni tashkil qildi.




## 2020- yilning yanvar- dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahri (891,9 mlrd. so'm), Karmana (556,2 mlrd. so'm), Qiziltepa (535,1 mlrd. so'm), Xatirchi (399,8 mlrd. so'm), Navbahor (379,0 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (361,2 mlrd. so'm) da qayd etildi.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 3 434,1 mld. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 59,5% ini tashkil qildi 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,3% oshishi kuzatildi.



### 2020- yilning yanvar- dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (803,7 mld. so'm), Karmana (579,0 mld. so'm), Qiziltepa (458,4 mld. so'm), Zarafshon shahri (405,9 mld. so'm), Xatirchi (378,4 mld. so'm), Navbahor (300,1 mld. so'm) va hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 9,3 %ni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 %ni tashkil qildi.

2020-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 45,3 foizni tashkil etgan bo'lib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 foizni tashkil qildi




2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 88,1 %ni tashkil etib, bu esa 2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,1 %ga pasayishiga olib keldi.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik biznesning ulushi 87,9 %ni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,8 %ga pasayish kuzatildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan so'f tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **843** ta respondentlar ishtirok etdi.




**2020- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,7 % (82 ta), sanoatda – 13,9 % (117 ta), qurilishda – 9,3 % (78 ta), savdoda – 40,7% (343 ta), xizmatlar sohasida – 26,4% (223 ta) ni tashkil etdi.

\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.




**2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**






**2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining ulushida barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi 0,8 punktga, sanoat sohasida 14,6 punktga, qurilishda 12,3 punktga, savdo sohasida 4,4 punktga, xizmatlar sohasida 2,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi 8,3 punktga, sanoat sohasida 1,7 punktga, qurilishda 2,2 punktga, savdo sohasida 4,0 punktga, xizmatlar sohasida 9,1 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

**Sanoat**

**Qurilish**

**Savdo**


**Xizmatlar**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 3,9 punktga, sanoat korxonalarida 1,2 punktga, qurilish korxonalarida 10,9 punktga, xizmatlar sohasida 5,5 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 7,3 punktga, ximatlar sohasida 4,0 punktga oshdi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019- 2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi,% da**


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo


Xizmatlar




2020- yilning IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **95** ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15 ta (15,8%), sanoat korxonalari – 19 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 20,0 % i), qurilish – 4,0 ta (4,2 % ), savdo – 42 ta (44,2 % ) va xizmatlarda – 15 ta (15,8 %) subyekt ishtirok etdi.



**2020- yilning IV choragi bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**




**2020- yilning IV choragi bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**






**2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushida ham deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda punktga, sanoat sohasida 36,3 iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.




## 2019-2020- yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020- yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyati yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 22,2 punktga, sanoatda 4,4 punktga, savdoda 11,7 punktga oshdi, qurilishda 50,0 punktga oshdi.



**2019-2020- yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

**Tel: (79) 223-57-61**